

Farg'onaning ravon yo'llari



Farg'ona viloyatida joriy yilning o'tgan davri mobaynida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2015 yil 25 dekabrdagi "2016 yilgi Investitsiya dasturi to'g'risida"gi PQ-2458 qarori hamda Vazirlar Mahkamasining 2016 yil 27 apreldagi 126-sonli qarorlarida belgilangan vazifalarni bajarish asnosida 8,6 km avtomobil yo'llari to'la ta'mirlanib, foydalanishga topshirildi.

Alovida qayd etish kerakki, 2016 yilning bahorida o'tkazilgan "Universiada-2016" sport musobaqalarining respublika final bosqichi tantanalari munosabati bilan Farg'ona shahridagi Burhoniddin Marg'iloni, "Ma'rifat", Qori Niyoziy, "Murabbiylar" ko'chalarida qurilish va rekonstruktsiya ishlari amalga oshirildi. Bu ko'chalar to'la ta'mirlanib, ularga yangi asfalt-beton qoplamlar yotqizildi hamda zamonaviy yoritish tizimlari o'rnatildi. Bir so'z bilan, shahar ko'chalari zamon talablariga mos tarzda qayta jixozlanib, haydovchilarga talay qulayliklar yaratildi.



"Viloyat hududidan o'tgan 4R 144 "Farg'ona-Hamzaobod" davlat ahamiyatidagi

avtomobil yo'lining 3 yarim kilometrdan ziyod qismida keng qamrovli qurilish-montaj, obodonlashtirish ishlari olib borildi. Ushbu ob'ekt yil yakuniga ko'ra foydalanishga topshiriladi", - deydi "Farg'onaavtoyo'l" tashkiloti direktori Subhonjon Soliev.

Shu bilan birga, A-373 avtomobil yo'lini "Ko'qon shaxar aylanma yo'li" bilan tutashtiruvchi 4R 17e davlat axamiyatidagi avtomobil yo'lining 5 km qismida qayta qurish ishlari amalga oshirilib, joriy yil yakuni bo'yicha ushbu avtomobil yo'li ham foydalanishga topshirilishi kutilmoqda. Bu bilan Qo'qon shahridagi yo'llarda transport oqimi intensivligi tartibga solinadi va shahar aholisi hamda mehmonlarga qo'shimcha qulayliklar yaratiladi.



"Farg'ona xalqa yo'lli"da joylashgan yo'l o'tkazgichni to'liq rekonstruktsiya qilish hamda "Farg'ona aylanma yo'li"ning 12-15 kilometrlari oralig'ida bajarilgan ta'mir ishlarining yakuni ham erishilgan natijalarga misol bo'la oladi.

Yuqoridagilardan tashqari viloyatdagagi 22 ta namunali uy-joy massivlarining 10,5 km uzunlikdagi ichki ko'chalarida, qolaversa, viloyat tumanlaridagi ichki xo'jalik yo'llarining 145 km ga yaqin qismlarida to'la va joriy ta'mirlash ishlari amalga oshirilgani ham alohida tafsinga sazovordir.

"O'zavtoyo'l" AK matbuot xizmati